

**«INKLYUZIV TA'LIM: STRATEGIYA, FAN, AMALIYOT VA  
TEKNOLOGIYALAR»**

xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari  
10-dekabr, 2021-y.

**«INCLUSIVE EDUCATION: STRATEGY, SCIENCE, PRACTICE  
AND TECHNOLOGY»**

Proceedings of the international scientific-practical online conference  
December 10, 2021.

**«ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: СТРАТЕГИЯ, НАУКА,  
ПРАКТИКА И ТЕХНОЛОГИИ»**

Материалы международной научно-практической онлайн-конференции  
10 декабря 2021 г.

**Qo‘qon – 2022**

**УДК: 373(07)**  
**ББК: 74.10=0**  
**X-71**

«INKLYUZIV TA'LIM: STRATEGIYA, FAN, AMALIYOT VA TEXNOLOGIYALAR» mavzusidagi xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (10-dekabr 2021-yil) – T.: QDPI, 2021. 273 b

**Taqrizchilar:**

L.R.Muminova – Respublika Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi direktori o‘rinbosari professor, pedagogika fanlari doktori.

D.A.Nurkeldiyeva – Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti dekani, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

**To‘plam uchun mas’ullar:**

L.R.Hayitov – Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika kafedrasini mudiri.

D.A.Nazarova – Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika kafedrasini dotsenti, p.f.n.

**Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:**

X.S.Raximova – Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika kafedrasini katta o‘qituvchisi.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida xorijiy hamda respublikamiz olimlari, soha mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, magistrlar va talabalarning maqolalari o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan mazkur mavzular atrofida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan izlanuvchilar: olimlar, tayanch doktorantlar, talabalar hamda keng jamoatchilik vakillari foydalanishlari mumkin. To‘plamda nashr etilgan maqola va tezislardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas'ul.

Ushbu to‘plam Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor huzuridagi Ilmiy-texnik kengashining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ilm-fanni rivojlantirishdagi strategiyalardan foydalanish ham katta yutuqlarga sabab bo'ladi desak ham adashmaymiz. Ilm-fan taraqqiyotida texnologiyalarni keng miqyosda qo'llanilishi, uni amalda tadbiiq etilishi e'tibordan chetda qolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim tizimi orqali mamlakatimizda har qanday inson ta'lim olishi va o'z qobiliyatlarini namoyon qilishiga imkon yaratib bermoqda. Barcha insonlar teng huquqlik. Har kim bilim olish va o'z ustida ishlashiga, iste'dodini namoyon qilib bera olishiga ega. Inklyuziv ta'lim butun mamlakat bo'ylab rivojlanib borayotganiga qaratilgan islohatlar bunga yaqqol misol bo'la oladi desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ture Yonson - "Inklyuziv ta'lim"- Opereyshen Mersiy", Toshkent-2003-yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
2. Roy Mark Konki. "Inklyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish" Toshkent -YUNESKO -2004 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.

### **INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETILGAN O'QUVCHILAR HAYOT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH – DOLZARB MASALA SIFATIDA**

**M.Dexkonova, Sh.Butayeva**  
**ChDPI, Maxsus pedagogika yo'nalishi**  
**2-kurs magistrantlari**

Chirchiq davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar rejasi tarkibida ta'lim klasteri vositasida sifatli va xavfsiz ta'lim sharoitini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishi olib borilmoqda. Ushbu tadqiqot rejasida o'quvchilar hayot xavfsizligini ta'minlashga oid xorijiy va milliy tajribalar o'rganildi va quyidagi vazifalar belgilab olindi: hayot xavfsizligining mazmuni va komponentlarini milliy va xorijiy tadqiqotlar asosida asoslash; "xavfsiz hayot" tushunchasini, inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarning hayot xavfsizligini ta'minlashning omillarini aniqlash; o'qituvchilarga o'quvchilar hayot xavfsizligini ta'minlashning samarali shakllarini o'rgatish.

Inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning xavfsizligini ta'minlash bugungi kunda dolzarb siyosiy masalalardan biridir. Zamonaviy maktablarda o'quvchilarning xavfsiz harakatlanishiga erishishning tashkiliy-texnologik, ijtimoiy-pedagogik, psixologik, metodik jihatlari inobatga olinmoqda. Amerikalik psixolog A.Maslou: «Inson iyerarxik ehtiyojlariga muvofiq, insoniyatning xavfsizlik ehtiyoji fiziologik ehtiyojlariga qaraganda ikkinchi darajada ahamiyatli, shu sababli butun insoniyat yashashining va sivilizatsiyasining asosiy muammolari kabi xavfsizlikni ta'minlash hayotning asosi sifatida xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga zarurat tug'iladi» - deb ta'kidlab o'tgan. Ayni paytda

xavfsizlik masalalarini hal qilish inson omilini inobatga olinmasdan amalga oshirilishi mumkin emas. Shu bois, inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarning xavfsiz hayotini ta'minlashda davlat tashkilotlari hamda ijtimoiy institutlarning hamkorlikdagi maqsadli faoliyati zarurdir.

Mamlakatimizda ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ta'lim jarayoni ishtirokchilarini tabiiy hamda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, xavfsizligini ta'minlashga erishishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi «Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4276-sonli qarori, 2019-yil 10-apreldagi «O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifatli yangicha tizimini tadbiq etish to'g'risida»gi PF-5706-sonli farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri-Fuqaro muhofazasi boshlig'ining 2020-yil 10-yanvardagi 1-sonli buyrug'i uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inida, xususan, imkoniyati cheklangan bolalar uchun tashkil etilgan barcha turdagi ta'lim muassasalarida o'quvchilar hayot xavfsizligini ta'minlashning huquqiy-me'yoriy asoslari belgilab berilgan.

Ta'lim muassasasining moddiy-texnik tuzilmasi, tibbiy-gigienik holati, pedagogik-psixologik jihozlanishi kabilar bu jarayonda gorizontal va vertikal bog'liq strukturalarning o'zaro manfaatli bog'liqligini ko'rsatadi. Vazirliklararo tuzilmalar o'z ishini sifatli bajarsagina, muassasalarda o'quvchilar hayot xavfsizligi ta'minlanadi. Bundan tashqari turli tabiiy ofatlarga binolarning bardosh berishi, favqulodda hodisalarda o'quvchilarning evakuatsiya harakatlarining me'yorlarga javob berishi kabi komponentlar inklyuziv ta'lim sharoitining sifatli ekanligini belgilab beradi.

Xavfsizlikni ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj odamlar va hamjamiyatlar faoliyatining asosiy motivlari qatoriga kiradi. Bu motivlarning strukturaviy joylashuvini ta'lim klasterining funksional bloklari tarkibiga kiritish mumkin.

Davlat esa jamoatchilik munosabatlarini amalga oshirish va fuqarolar huquqlari kafolatini ta'minlash tashkiliy-siyosiy mexanizmi hisoblanadi. Davlat shaxs ustidan yuqori turishi mumkin emas. Zero, uning vazifasi shunday sharoit yaratishki, shaxsning ijodiy rivojlanishi haqiqiy oliy maqsadga aylanishi lozim.

Ta'lim klasterining xayot xavfsizligiga yo'naltirilgan komponentida xavfsizlik tizimining kuchsizligi katta ofatlarga olib keladi. Buning uchun klasterning har bir bo'g'inida maqsad sifatida o'quvchilarni sifatli va xavfsiz ta'lim bilan ta'minlash tanlanishi lozim.

Ma'lumki, xavf – jahon hamjamiyati, alohida davlat va jamiyatning turli ijtimoiy guruh hamda fuqarolariga, moddiy va ma'naviy qadriyatlarga putur yetkazadigan ehtimoldagi yoki aniq voqea, hodisa yoki jarayondir. Xavfsizlik tizimining asosiy tamoyillari quyidagilar: sohaga oidlik, faollik, majmuaviylik, o'z vaqtidalik, keng qamrovlilik, davomiylik, qonuniylik, asoslilik, tejamlilik, hamkorlik.

Bugungi kunda aholini barcha qatlamlarini, shu jumladan inklyuziv ta'lim jarayonida maktab o'quvchilarini xavfli va favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga tayyorlashning ahamiyati ortib bormoqda. Bu jarayonda inklyuziv muassasalar bilan hamkor hisoblangan tashkilotlar har bir o'quvchining xavfsiz rivojlanishi va qulay harakatlanish imkoniyatini ta'minlashda birdek manfaatdordir. Zero ta'lim klasteri o'zaro manfaatdor hamkorlik va integrativ faoliyatga asoslanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abraxam Maslou: «Motivatsiya i lichnost» 2014. S. 56.
2. "Maktab va hayot" 2021 yil, 4-5-sonlari.
3. "Bola va zamon" jurnali, 2020 3-soni, 2021 yil 1-soni.

### **KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI AQLI ZAIF BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

**A.A.Gulyamova**  
**Nizomiy nomidagi TDPU**  
**Oligofrenopedagogika kafedrası o'qituvchisi**

Nutq kishilararo aloqa vositasidir. Nutq orqali inson o'z fikri, his-tuyg'ulari va istaklarini atrofdagi odamlarga bildiradi, ular bilan tajriba almashib, o'z xatti - harakatlarini moslaydi.

Nutq murakkab funksional jarayondir. Uning asosida muloqot jarayonidagi til birliklarini o'rinli qo'llanish yotadi. Tilning murakkab sistemasi uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo'lib, u bola tomonidan nisbatan qisqa muddatlarda o'zlashtirib olinadi. Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkur qobiliyatlari shakllanadi. So'zning ahamiyati o'z-o'zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan o'zida nafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan o'xshash emas va ma'lum darajada bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda paydo bo'ladi. Lekin bolaning ruhiy rivojlanish jarayonida murakkab, sifati jihatidan yangi birlik nutqiy tafakkur, nutqiy fikrlash faoliyati paydo bo'ladi.

Insonning eng muhim fazilatlaridan biri uning so'zlash qobiliyatiga ega bo'lib, nutq vositasida o'zaro aloqa bog'lay olish, fikrlasha bilishidir. Turli tovushlarning ma'lum tartibda birgalashib, payvasta bo'lib qo'shilishidan yuzaga kelgan ma'noli nutq muayyan organizmlarning faoliyati natijasida paydo bo'ladi.

Kishilarning tili vositasida o'zaro munosabatda bo'lish jarayoni nutq deb ataladi.

Fikrlash o'quvchining nutqi va tafakkurini o'sishida muhim vositadir. Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib, yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki va tashqi nutqning fiziologik tabiati bir xil, farq tovush chiqariladi yoki yozib bayon etiladi, ichki nutqda nutq organlarining harakati tovushsiz yuzaga keladi.

17.	G.S.Abdullayeva	Inklyuziv ta'lim sharoitida eshitishda nuqsoni bor talabalarga maxsus fanlarni o'qitishda aktdan foydalanish	53
18.	K.X.Alimova	Maktabgacha yoshdagi bolalarda grafomotor ko'nikmalarni shakllantirish maktabga tayyorlashning samarali omili sifatida	57
19.	S.S.Akbarov	Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishning huquqiy asoslari	59
20.	Y.Q.Abdullayeva	Og'ir nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar lug'atini rivojlantirishda innavatsion texnologiyalar	62
21.	Sh.O'.Abutova	Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari	65
22.	N.Ahmadaliyeva	Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish	68
23.	Z.T.Aripov R.N.To'ychieva	Ta'limning didaktik tamoyillari	71
24.	D.A.Abdulhafizova	Ko'rish nuqsoniga ega shaxslar nutqi va muloqotini rivojlantirish	74
25.	M.X.Abdullayeva	Samarali muloqot kar va zaif eshituvchi bolalar ijtimoiylashuvining ijtimoiy-siyosiy omili sifatida	78
26.	X.S.Akramova M.Abdujabborova	Logoped faoliyati bilan ota-onalar hamkorligining ishlarni tshkil etish	81
27.	V.Axmedova	Tayanch harakati a'zolari falajlangan bolalar nutq kamchiliklarini bartaf etish yo'llari	84
28.	Yu. X.Boymatova	Kar bolalarning nutqini rivojlantirish texnologiyasi	86
29.	M.Maxmudova A.Babayeva	Inklyuziv ta'lim jarayonida psixoterapiya metodlarini qo'llanilishining ilmiy asoslari	89
30.	X.A.Abdupattayev	Tarbiya nazariyasi va amaliyotida davriylik muammolari	91
31.	S. Baymuratova N.IIhomova	Alohida yordamga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasining rivojlanish istiqbollari	94
32.	M.Dexkonova Sh.Butayeva	Inklyuziv ta'limga jalb etilgan o'quvchilar hayot xavfsizligini ta'minlash – dolzarb masala sifatida	97
33.	A.A.Gulyamova	Kichik maktab yoshidagi aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	99